KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 41 (571) 2025-YIL, 27-SENTABR

Davra suhbati

KITOB BILIM MANBAI



Har qanday jamiyatning taraqqiyoti kitobxonlik darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Mutolaa suv va havodek zarur bo‘lgan eng muhim hayotiy ehtiyojdir.

Shaxsiy tarkibning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini orttirish, bilim darajasini boyitish va dunyoqarashini kengaytirish, ma’naviyatini hamda bilim va ko‘nikmalarini yuksaltirish maqsadida, Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumanida joylashgan harbiy qismlarning birida “Kitob bilim manbai” shiori ostida davra suhbati o‘tkazildi. Unda yosh harbiy xizmatchilar o‘zbek va jahon adabiyoti namoyandalari ijodi, yangi nashr qilinayotgan kitoblar xususida bahs-munozara olib bordilar.

T.O‘LMASOV,
DXX CHQ harbiy xizmatchisi.

Ekologiya


Atmosfera tabiatning eng muhim elementlaridan hisoblanadi. Shu bilan birga insonning yashashi toza havoga bog‘liq. Aksincha, havo ifloslanib, uning kimyoviy tarkibi va fizik xossalari o‘zgarishi bilan har bir organizmning fiziologik holati o‘zgaradi va turli kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

BARG XAZONLARINI YOQMANG!

Har bir faslning, shu jumladan, kuzning ham o‘ziga xos go‘zalligi va tarovati bor. Daraxtlarning yerga to‘kilayotgan oltinrang barglari, iliq havo va sokin yomg‘irli kunlar kishi diliga zavq bag‘ishlaydi. Ammo bu faslda barglar yerga to‘kilib, xazonrezgilik boshlanishi bilan ayrim odamlar ularni supurib to‘plashadi va yoqishadi.

Ko‘pincha atmosfera havosining ifloslanayotganidan noliymiz. Aslida bunga mana shu holatlarning salbiy ta’siri kattaligi haqida o‘ylab ham ko‘rmaymiz. Natijada havo ifloslanadi. Qurigan yaproq yoki xazonlar yonganda hosil bo‘lgan tutun tarkibidan juda ko‘p miqdorda uglerod oksidi va boshqa zaharli moddalar ajralib chiqadi. Bu moddalar havodan nafas olayotgan jamiki tirik organizmga, ayniqsa, inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shifokorlarning ma’lumotiga ko‘ra, bunday havodan nafas olgan odamda nafas yo‘llari, qon-tomir xastaliklari paydo bo‘ladi va to‘qimalar faoliyati buziladi. Bundan tashqari, oshqozon-ichak va allergik xastaliklar ham ko‘payadi. Ko‘pchiligimiz ayrim mahallalardagi maktabgacha ta’lim muassasalari, maktablar, aholi yashash uylari atrofida to‘plangan barg xazonlarini yoqayotgan odamlarni ko‘rsak-da, ularga befarq o‘tib ketamiz. Aslida ular sizu bizning aziz farzandlarimiz nafas olayotgan havoni zaharlashayotganiga e’tibor qaratmaymiz. Yongan barglar tutunidan, ayniqsa, yosh bolalarimiz organizmi tez va oson zaharlanadi. Tegishli mutaxassislar bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan bir qator targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishmoqda. Lekin bunda barchamiz faol ishtirok etishimiz, xazonlar yoqilishiga qarshi kurashishimiz zarur. Ularni to‘plab, maxsus chiqindixonalarga olib ketish lozimligini barcha bilishi kerak. Shu bilan birga kompostlash yo‘li bilan ulardan mahalliy o‘g‘it olinib, foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Atrof-muhit muhofazasiga faqat kuz faslida emas, balki yil davomida e’tiborli bo‘laylik. Ona tabiatni asrab-avaylashga, uni ifloslantirmaslikka har birimiz o‘z hissamizni qo‘shaylik.



Sardorbek AZIMXODJAYEV,
O‘zbekiston Ekologik partiyasi Oltinko‘l tuman Kengashi raisi.

Raqamli sud

QULAYLIK, YENGILLIK VA YANGI IMKONIYATLAR



2025-yil 21-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF–140-sonli farmoni mamlakatda sud-huquq islohotlarining yangi bosqichini boshlab berdi.

Farmon bilan tizimda nima o‘zgarmoqda, u odamlarga qanday qulaylik yaratadi?

Aksar ishlar onlayn tizimga o‘tadi.

Farmonga ko‘ra, yurtimizda bosqichma-bosqich “Raqamli sud” konsepsiyasi joriy etiladi. Jumladan, joriy yil oxirigacha Toshkentda tajriba tariqasida raqamli texnologiyalar bilan jihozlangan zamonaviy sud zallari paydo bo‘ladi. Konsepsiya 2026-2027-yillarda tajriba natijalariga ko‘ra, bosqichma-bosqich respublikaning barcha sudlariga tatbiq etiladi.

Bunday yangiliklar sud ishlari samaradorligini oshirish bilan birga, sudlar ish yukini kamaytiradi, inson omili bilan bog‘liq xatolarning oldini oladi va eng muhimi — odil sudlovga tez va shaffof erishish imkoniyatini yaratadi.

Farmonda nazarda tutilgan texnologiyalar nafaqat ish yuritishni yengillashtiradi, balki sud jarayonlarini sifat jihatidan o‘zgartiradi. Ya’ni:

Sud hujjatlarining loyihalari avtomatik shakllantiriladi;

Normativ-huquqiy hujjatlar sun’iy intellekt orqali tahlil etiladi;

Sud muhokamasining taxminiy natijasi va xarajatlari oldindan hisoblanadi. Bunday imkoniyatlar sud tizimining shaffofligi va xolisligini kuchaytirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Farmonda keltirilgan rejalarning amaliy ahamiyati shundaki, har bir chora-tadbir uchun aniq muddatlar belgilangan:

2025-yil 1-dekabrga qadar — fuqarolar, advokatlar va sudyalar uchun normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qiluvchi elektron platforma ishga tushiriladi.

2026-yil 1-yanvardan — “my.sud.uz” portalida sun’iy intellekt asosida ishlaydigan virtual maslahatchi faoliyati boshlanadi.

2026-yil 1-martdan — sud ishlari holati va ma’lumotlarini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali olish imkoni yaratiladi.

Bu tadbirlar orqali fuqarolarning sud himoyasiga bo‘lgan ishonchi oshishi, murojaatlarga javob olishdagi shaffoflik va tezlikni ta’minlash rejalashtirilmoqda.

Farmon faqat texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanmaydi. U sudya va xodimlar uchun munosib sharoit yaratish, raqamli savodxonlikni oshirish, kiber huquq sohasida kadrlar tayyorlash kabi muhim yo‘nalishlarni ham o‘z ichiga oladi.

Sudlarning moddiy-texnik bazasi va sudyalarning ijtimoiy himoyasiga alohida e’tibor qaratiladi. 2025-2030-yillarga mo‘ljallangan rejada 162 ta yangi bino qurish, 82 tasi rekonstruksiya qilish va 93 tasini kapital ta’mirlash hamda sudyalarni xizmat uylari bilan ta’minlash ko‘zda tutilgan.

Bundan tashqari, 5 yil muvaffaqiyatli ishlagan sudyalarni hozirgidek 10 yilga emas, birdaniga muddatsiz davrga tayinlash rejalashtirilmoqda. Shuningdek, sudyalik lavozimiga ko‘tarilish va qayta tayinlanishning aniq mezonlarini belgilash, sud raislari va Sudyalar oliy kengashi a’zolarini saylashda sudyalar hamjamiyatining ishtiroki jarayonini demokratlashtirish taklif etilmoqda.

Prezident tomonidan qabul qilingan PF–140-sonli farmon — O‘zbekistonda sud-huquq sohasini zamonaviy bosqichga olib chiqishga qaratilgan strategik qadamdir. Sun’iy intellekt va raqamlashtirish orqali odil sudlovni ta’minlash nafaqat islohot, balki jamiyatda ishonch va adolat muhitini shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

U. SOLIYEV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha Paxtaobod tuman sudining raisi.

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI

O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa



JAMIYAT TARAQQIYOTI KUSHANDASI

Korrupsiya jahon miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan jahonshumul muammolardan biridir. Korrupsiyaning har qanday davlat va jamiyatning siyosiy–iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazib, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi.

Shu bois, korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Yurtimizda ham korrupsiyaga qarshi kurashish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu illatga qarshi kurashish va uni ildizi bilan yo‘q qilib yuborishga qaratilgan chora-tadbirlar barcha huquqni muhofaza qilish organlar faoliyatini qamrab olmoqda.

Shu qatorda prokuratura organlari ham korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatida o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida prokuratura va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan bir qator dasturlar ishlab chiqilib ular bo‘yicha salmoqli va keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Biroq, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan viloyatimiz hududida davlat tashkilotlari xodimlari va boshqa fuqarolar tomonidan korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘yish holatlari hamon kuzatilmoqda.

Xususan, 2024-yil 12-noyabr kuni fuqaro B.O.ning arizasiga asosan o‘tkazilgan tezkor tadbirda, Andijon shahar soliq inspeksiyasi “Mahallalarga biriktirilgan soliq inspektorlari sho‘basi” davlat soliq bosh inspektori davlat organi mansabdor shaxsi bo‘la turib, B.O.ning manfaati uchun tegishli harakatlarni bajarish vakolatiga ega bo‘lmasa-da, o‘z xizmat mavqeidan, ya’ni ushbu harakatlar boshqa mansabdor shaxs tomonidan bajarilishi uchun chora ko‘rishi mumkinligidan foydalanganligi ma’lum bo‘ldi. Ariza muallifi faoliyatini vaqtincha to‘xtatgan bo‘lsa-da, boshqa manzilda tadbirkorlikning “kompyuter o‘yinlari klubi” faoliyatini davom ettirib kelayotganligi aniqlandi. Ushbu faoliyat bilan ruxsatnomasiz, nazorat kassa mashinasi o‘rnatmasdan shug‘ullanib kelayotganligi yuzasidan tekshirish o‘tkazmaslik, pora berayotgan B.O.ning manfaatlarini ko‘zlab, unga nisbatan chora ko‘rmasligi va kelgusida unga rahnamolik qilib turishini aytadi. Noqonuniy faoliyat ko‘rsatgan har bir oy uchun tamagirlik yo‘li bilan 500.000 so‘mdan, ya’ni 2024 yil oktyabr-noyabr oylari uchun undan 1.000.000 so‘m pullarni pora tariqasida talab qiladi. Ushbu pul mablag‘larini olish qonunga xilof ekanligini bila turib, Andijon shahar hududida olgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlangan.

Mazkur holat bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi JKning 210-moddasi 2-qismi “v” bandi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan va Andijon shahar soliq inspeksiyasi “Mahallalarga biriktirilgan soliq inspektorlari sho‘basi” davlat soliq bosh inspektoriga nisbatan “Qamoqqa olish” ehtiyot chorasi qo‘llanilgan. Jinoyat ishi bo‘yicha dastlabki tergov harakatlari olib borilib, jinoyat ishi sudga yuborilgan. Sudning hukmi bilan jazoning muqarrarligi ta’minlangan.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, har bir korrupsiya holatlari bo‘yicha qonun ustuvorligi va jazoning muqarrarligi ta’minlanadi.

Shunga ko‘ra, mamlakatimizning kelajagini va obro‘-e’tiborini qadrlaydigan har bir fuqaro korrupsiyaning zararli oqibatlarini doimo esda tutmog‘i va unga qarshi kurashmog‘i shart. Zero korrupsiyaga qarshi kurashish – jamiyat taraqqiyotining asosidir.

T.ARSLANOV,
Andijon viloyat prokuraturasi bo‘lim katta prokurori.

KORRUPSIYA HODISASI

bu shunchaki jinoyat yoki huquqbuzarlik emas

Bugun shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyodagi dolzarb muammolardan bo‘lgan korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish masalasiga, mamlakatimiz siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

Ma’lumki, korrupsiya har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, davlatning konstitutsiyaviy asoslarini va qonun ustuvorligini zaiflashtiradi, pirovardida inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi.

Korrupsiya hodisasi - bu shunchaki jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, balki ma’naviy buzilish holatidir. Shunday ekan, o‘ylaymizki, mazkur illatga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki, jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas’uldirlar.

Hozirda korrupsiya tushunchasini yoritishda bir qancha ta’riflar mavjud. Birlashgan millatlar tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida korrupsiyaga eng qisqa, lekin keng qamrovli ta’rif quyidagicha berilgan: “Korrupsiya – bu shaxsiy naf ko‘rish maqsadida davlat hokimiyatini suiiste’mol qilishdir”.

Davlatimiz rahbari tomonidan ushbu jinoyatga “Jinoyatning yopiq va eng qabih turi bor. Bu korrupsiya va poraxo‘rlik, jinoyatning bu turi boshqaruv apparatini izdan chiqaribgina qolmay, bozor asoslarini ham barbod etishi mumkin. Korrupsiya, eng avvalo, uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo‘lish yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanishidir” deb bejiz ta’rif berilmagan.



Joriy yilning 5-mart kuni hurmatli Prezidentimiz Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Milliy kengashning kengaytirilgan yig‘ilishida yurtimizda korrupsiyadan holi muhit yaratish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarga baho berib, kelgusidagi vazifalarni aniq belgilab berdilar.

Xususan, “Sudlar faoliyatiga har qanday aralashish – bu odil sudlovga soya solish deb baholanishi” hamda bu bo‘yicha so‘rov ham, javobgarlik ham qattiq bo‘lishi haqida barchani ogohlantirdi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirda ham hurmatli Prezidentimiz Yangi O‘zbekistonni barpo etishda asosiy e’tiborni beshta ustuvor yo‘nalishga qaratib, ulardan biri sifatida korrupsiyadan holi, adolatli sud tizimini yaratish masalasini davlat siyosati darajasida mustahkamlab qo‘ygandilar.

Korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida Oliy sud rahbariyati tomonidan muntazam ravishda profilaktik suhbatlar va tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Xususan, sud idoralari xodimlariga o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda jismoniy va yuridik shaxslardan ularning manfaatlarini ko‘zlagan muayyan harakatni bajarishi yoki bajarmasligi evaziga bevosita o‘zi yoki vositachi orqali pul, qimmatli qog‘ozlar, moddiy boyliklar, sovg‘alar, ssudalar, mulkiy mohiyatga molik bo‘lgan xizmatlar kabi takliflar bilan murojaat qilingan taqdirda, u noqonuniy xatti-harakatlarni to‘xtatishni talab qilishi va taklif qilgan shaxsni tegishli javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirishi lozim. Mazkur holat bo‘yicha zudlik bilan tegishli tarkibiy bo‘linma rahbarlarini yozma tarzda xabardor qilishi, zudlik bilan yozma tarzda xabardor qilishning imkoniyati bo‘lmagan taqdirda esa, telefon orqali xabar berishi yoki tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga darhol murojaat etishi zarur. Xodimning ogohlantirishiga qaramasdan pul yoki boshqa moddiy boyliklar qonunga xilof ravishda uning xizmat xonasida qoldirib ketilgan taqdirda, bu haqda binoga kirish-chiqish postida xizmat o‘tayotgan tegishli shaxslar ishtirokida dalolatnoma tuzib, mazkur dalolatnomani rahbariyatga taqdim etishlari shart ekanligi xususida doimiy ravishda ko‘rsatmalar berib kelinmoqda.

Shuningdek, kengaytirilgan yig‘ilishlarda barcha sudyalar va sud apparati xodimlari o‘z xizmat vazifalarini halol, vijdonan, yuqori professional darajada va vakolatlaridan chetga chiqmagan holda bajarishi, sud hokimiyatini obro‘sizlantirish va nufuziga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlardan o‘zini tiyishi, bo‘ysunuvidagi xodimlarni noqonuniy qarorlar qabul qilish yoki g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etishga majbur etmasligi ta’kidlanib kelinmoqda.

Kasbimiz ulkan aql-idrok va ko‘p yillik hayotiy tajribani, xolislik va beg‘arazlikni, intizom va halollikni taqozo qiladigan o‘ta mas’uliyatli, murakkab, shu bilan birga, sharafli kasb ekanligini zinhor unutmasligimiz kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar fuqarolar tomonidan ham faollik ko‘rsatilsagina, ko‘zlangan natijani berishi mumkin.

K.ABDURAZIKOV,
huquqshunos.

Oiladagi zo‘ravonlik

XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLAR

Oila - jamiyatning asosi, qadriyatlarimizning markazi. Ammo afsuski, bu muqaddas maskan ba’zi hollarda ayollar uchun jismoniy, ruhiy va iqtisodiy azob manbaiga aylanadi. Oila-maishiy zo‘ravonlik butun dunyoda yechimi qiyin bo‘lib turgan global muammo bo‘lib, u ayollarning huquq va erkinliklariga jiddiy tahdid soladi. Xalqaro hamjamiyat va O‘zbekistonda bu illatga qarshi kurashish bo‘yicha muhim qadamlar tashlanmoqda.

Xalqaro tajriba: Zo‘ravonlikka qarshi kurashning samarali strategiyalari ko‘plab rivojlangan mamlakatlar oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashda boy tajriba to‘plagan. Ko‘plab davlatlar zo‘ravonlikning har qanday ko‘rinishini taqiqlovchi maxsus qonunlar qabul qilgan. Masalan, Buyuk Britaniyada «Maishiy zo‘ravonlik, zo‘rlash va jabrdiydalarni himoya qilish to‘g‘risida»gi qonun mavjud. U nafaqat jismoniy, balki psixologik, jinsiy va iqtisodiy zo‘ravonlik turlarini ham o‘z ichiga oladi. Himoya orderlari (Protection Orders) - AQSH, Avstraliya, Kanada kabi davlatlarda bu mexanizm keng qo‘llaniladi. Himoya orderi sud tomonidan chiqarilib, zo‘ravonlik qilgan shaxsning jabrlanuvchiga yaqinlashishini, u bilan aloqaga chiqishini va hatto bir uyda yashashini taqiqlaydi. Bu jabrlanuvchiga vaqtinchalik xavfsizlikni ta’minlaydi.

Ba’zi mamlakatlarda, zo‘ravonlik qilgan shaxslar uchun g‘azabni nazorat qilish va xulq-atvorni o‘zgartirishga qaratilgan majburiy davolash dasturlari joriy qilingan. Bu jinoyatning takrorlanishining oldini olishga qaratilgan uzoq muddatli yondashuvdir.

Jabrlanganlarga kompleks xizmat ko‘rsatish tizimida boshpana uylari (Shelters) va inqiroz markazlari. Bu maskanlar zo‘ravonlikdan qochgan ayollar va ularning farzandlariga xavfsiz vaqtincha turar joy, oziq-ovqat va psixologik-yordam-beradi. «Bir darchadan» yondashuvi Finlyandiya, Shvetsiya kabi davlatlarda samarali ishlaydi. Jabrlanuvchi bir martda-murojaat-qilib, shu yerning o‘zida ham huquqiy, ham psixologik, ham tibbiy yordamni olishi mumkin. Bu jarayonni soddalashtiradi va jabrlanuvchining takroriy stressdan himoya qiladi. 24/7 ishlaydigan bepul ishonch liniyalari orqali ayollar tezkor maslahat va yordam olish imkoniyatiga ega.

Davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligida doimiy ravishda «oila-maishiy zo‘ravonlik nol tolerantlik» shiori ostida ijtimoiy reklamalar, seminarlar va targ‘ibot kampaniyalari o‘tkaziladi. Maktablar va oliy o‘quv yurtlarining o‘quv dasturlariga munosabatlar madaniyati, muloqot ko‘nikmalari va zo‘ravonlikka qarshi turish bo‘yicha ma’lumotlar kiritiladi.

O‘zbekistonda bu muammoga qarshi kurash O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu borada tizimli va keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonun 2019-yilda qabul qilingan. Qonun O‘zbekiston tarixida ilk bor zo‘ravonlikning turlarini aniq belgilab berdi va unga qarshi kurashish mexanizmlarini yaratdi. Bu qonun bilan himoya orderi tushunchasi kiritilib, jabrlanuvchi huquqiy himoyaga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksiga oilaviy zo‘ravonlik uchun jazoni kuchaytiruvchi normalar kiritildi. Bu, zo‘ravonlik qilgan shaxsning jazodan qochishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Mamlakat bo‘ylab «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazlari va ularning filiallari tashkil etildi. Bu markazlar nafaqat zo‘ravonlik qurbonlariga boshpana, balki psixologik, huquqiy va ijtimoiy yordam ham ko‘rsatadi. «Ayollar daftari» orqali og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, shu jumladan, zo‘ravonlikka uchragan ayollar aniqlanadi va ularga manzilli yordam ko‘rsatiladi. Bu yordam moddiy, tibbiy yoki ish bilan ta’minlash shaklida bo‘lishi mumkin. Ichki ishlar bo‘limlarida va maxsus markazlarda ishonch telefonlari yo‘lga qo‘yilgan. Zo‘ravonlikka uchragan ayollar 102 yoki 1146 kabi qisqa raqamlar orqali tezkor yordam olishlari mumkin.

Milliy strategiya: O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash va zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha milliy strategiya ishlab chiqilgan. Bu strategiya doirasida davlat organlari, nodavlat tashkilotlari va jamoatchilik o‘rtasida hamkorlik kuchaytirilmoqda. Bu mavzu OAVda keng yoritilmoqda, ijtimoiy roliklar, ko‘rsatuvlar va maqolalar tayyorlanmoqda.

Oilaviy zo‘ravonlik – bu jamiyatning jiddiy kasalligi. U bilan kurashish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning emas, balki butun jamiyatning mas’uliyatidir. O‘zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashgan holda, ayollar huquqlarini himoya qilish va ularning xavfsizligini ta’minlashning yangi bosqichini boshlab berdi. Ammo hali oldinda qilinadigan ishlar ko‘p. Zo‘ravonlikka nisbatan nol-tolerantlik (ya’ni, mutlaqo murosasizlik) muhitini shakllantirish, jamiyatning har bir a’zosi bu muammo oldida befarq bo‘lmasligi juda muhim.

A.MAMATQULOV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha
Bo‘ston tuman sudining raisi.

Jinoyat va jazo

QING‘IR ISHNING QIYIG‘I...



Iqtisodiyotning lokomotivi bo‘lgan tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va uning huquqiy himoyasini ta’minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning eng asosiy yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Mana shu islohotlar zamirida bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, tadbirkor sifatida qonuniy ish olib borish uchun keng imkoniyatlar eshigi ochib berilgan. Ana shu imkoniyatlardan foydalangan holda tadbirkorlik bilan shug‘ullanib, qator yutuqlarga erishayotgan yurtdoshlarimiz talaygina. Ammo, guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek, ba’zi bir kishilar faqat o‘z manfaatini ko‘zlab, amaldagi qonun talablarini buzayotganligi achinarli holatdir.

M.A ham shunday shaxslar sirasiga kirib, soxta tadbirkorlik, soliq va yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash, tovarlar savdosi va xizmat ko‘rsatish qoidalarini buzish kabi jinoyatlarni sodir etdi.

Xususan, M.A davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imtiyozlardan o‘zining g‘araz maqsadlarida foydalanib, soxta tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish orqali soliq to‘lovlarini to‘lamaslikda ifodalangan jinoiy rejalarini amalga oshirish maqsadida o‘zining atrofiga iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni sodir etishga moyil hamda unga so‘zsiz itoat qilgan I.A. ni jalb qilib, ushbu shaxslar bilan birgalikda jinoiy faoliyatini amalga oshirib, kelgusida sodir etgan qilmishlari uchun jinoiy javobgarlikdan qutulish va byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash maqsadida mulkiy va moddiy ahvoli og‘ir hamda pulga muhtoj shaxslarni topgan holda ularni qisqa muddat davomida xufiyona faoliyat yuritgan jamiyatlarga rahbar sifatida rasmiylashtirishni rejalashtiradi.

M.A. jinoiy sherigi I.A. bilan jinoiy til biriktirib, 2 ta mas’uliyati cheklangan jamiyatlarni ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Jamiyatlar rahbari lavozimiga jinoiy sherigi I.A.ni tayinlaydi. Jamiyatning nizomida ko‘rsatilgan faoliyat bilan shug‘ullanish maqsadini ko‘zlamasdan, aksincha tovarlar savdosi va xizmat ko‘rsatish qoidalarini buzish orqali noqonuniy boylik orttirish hamda mulkiy manfaat ko‘rish maqsadida soxta tadbirkorlik bilan shug‘ullanadi. Jami 51 mlrd. 729 mln. so‘mlik tovarlar savdosi va xizmat ko‘rsatish qoidalarini juda ko‘p miqdordagi qiymatda buzishdi hamda davlat tomonidan belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisobotlardan yashirish va shu orqali soliq to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash maqsadida soliq organlariga taqdim etgan hisobotlariga soxta ma’lumotlar va yozuvlar kiritadi. Savdo tushumlarini hisobotlarda aks ettirmasdan yashirib, jami 1 mlrd. 478 mln. so‘mlik soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlab, davlat manfaatlariga juda ko‘p miqdorda zarar yetkazishdi.

Noqonuniy yo‘lni tanlagan ushbu fuqarolar Jinoyat kodeksining tegishli modda va bandlari bilan aybdor deb topilib, tegishli jazoga tortildilar.

Xususan, M.A. sodir etgan qilmishi uchun JKning 184, 189-moddalari bilan aybli deb topilib, 3 yil 8 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Ta’kidlanganidek, bugun qonuniy ish yuritaman degan odamga imkoniyatlar talaygina. Biroq, yuqoridagi kabi o‘zboshimchalik bilan, noqonuniy boylik orttirishga urinayotgan kishilar albatta, qonun oldida jazoga tortiladi.

Umidjon MUMINOV,
Departamentning Taftish boshqarmasi katta taftishchisi.
Jaxongir XAKIMOV,
Departamentning Andijon viloyati boshqarmasi katta taftishchisi.

Yong‘in xavfsizligi

MAVSUMGA TAYYORMISIZ?

Kuz-qish mavsumida aholining xavfsizligini ta’minlash, odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga hamda moddiy boyliklariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida haftaning har chorshanba va shanba kunlari profilaktik tadbirlar o‘tkazilmoqda. Bu tadbirlarda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining barchasida va mahallalarda mavsumga tayyorgarlik ishlari o‘rganilmoqda. Natijada ko‘p xonadonli uylar tekshirildi va uylarning yong‘in-xavfsizlik qoidalariga javob bermaydigan chordoq va yerto‘lalarida muammo va kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko‘rildi. Shuningdek, o‘rganishlar davomida aholi turarjoylari va ko‘p qavatli uylardagi kamchilik bartaraf etilmoqda.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga qarashli obyektlarda, oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga qarashli oliy ta’lim muassasasida yong‘in-texnik tekshiruvlari o‘tkazilib, yong‘in xavfsizligini ta’minlash hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilib, muammo va kamchiliklar yechimi yuzasidan topshiriqlar berildi.

Davlat tasarrufidagi obyektlarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari o‘rganildi.

Xojiakbar ABDULLAYEV,
Sherzodbek ALISHEROV,
Andijon viloyat FVB Qabullar uyi BYOXTTEB katta inspektorlari.



«ҲАЛОЛ» НОВВОЙ

Бир новвой бор эди. Бир куни у қўшнисидан сотиб олган ярим кило сарёғни тарозида тортиб кўрмоқчи бўлди. Сарёғ ярим кило эмас, камроқ чиқди. Бундан жаҳли чиққан новвой қўшнисини қозига олиб борди.

Қози новвойнинг қўшнисидан у сарёғни тортган тарозининг тошини олиб келиши кераклигини айтди. Судланувчи тарозининг тоши йўқлигини айтди. Қози ундан новвойга қанча сарёғ беришни қандай аниқлаганини сўради.

“Жаноби олийлари, қўшним новвойликни бошлаганида битта нонниng оғирлиги ярим кило эканлигини айтган. Шунинг учун унга сарёғ сотганимда тарозининг бир палласига битта нон, иккинчи палласига сарёғ қўяман. Сарёғнинг вазни нонники билан бир хил бўлганида уни новвойга бераман”, деди судланувчи.

Хулоса: кимнидир сенга нисбатан нопоклик қилганликда айблашдан олдин ўзингга боқ. Балки бу “нопоклик”нинг сабабчиси ўзинг бўлгандирсан.



Дилшодбек АСҚАРОВ таржимаси.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳрида яшаб, 2020 йил 7 ноябрь куни вафот этган марҳум **PATIDINOV XASANBOY,**

Андижон шаҳрида яшаб, 2022 йил 26 январь куни вафот этган марҳум **PATIDINOVA SHARAPATXON**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шоҳкўчаси, 30/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.А.Узакбаев нотариал идорасига,

Андижон шаҳрида яшаб, 2006 йил 14 февраль куни вафот этган марҳум **МАХМУДОВА МАХБУБАХОН ХХХ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Тошкент кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.А.Раҳимов нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, 3-тор М.Ашрафий кўчаси, 9-11 уйда яшаб, 2025 йил 2 май куни вафот этган марҳум **НИЯЗОВ МУХАММАДЖАН ТУРСУНОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, 3-кичик даҳа, 38-уй, 13-квартирасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Г.Х.Киргизбаев нотариал идорасига,

Андижон шаҳрида яшаб, 2018 йил 8 апрель куни вафот этган марҳум **NO‘MANOV IQBOL KAMILOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, А.Темур шоҳкўчаси, 35/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Д.А.Абдусаломова нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2008 йил 11 апрель куни вафот этган марҳум **ЗАКИРОВ СОБИРЖОН,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 29 июнь куни вафот этган марҳум **XAMRABAYEV JURABOY XXX,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2020 йил 4 октябрь куни вафот этган марҳум **MENGDIBOYEVA MUTABAR NASIROVNA**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Н.Акбаров нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2022 йил 4 июль куни вафот этган марҳум **UBAYDULLAYEVA MINERA FAZILOVNA,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2006 йил 29 март куни вафот этган марҳум **ЗАКИРОВА МУКАРАМХОН,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2012 йил 12 март куни вафот этган марҳум **УРАКОВ КОДИР НАЗАРОВИЧ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 30 январь куни вафот этган марҳум **TILLAYEVA ASALXON**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Шодлик МФЙ, Бобур кўчасидаги 1-уйда яшаб, 2018 йил 31 октябрь куни вафот этган марҳум **ТОШБОЕВА ГУЛХОН,**

Избоскан тумани, Амир Темур МФЙ, Жийдамозор кўчасидаги уйда яшаб, 1991 йил 25 февраль куни вафот этган марҳум **ФАХРИТДИНОВА ИБОДАТХОН,**

Избоскан тумани, Тўрткўл МФЙ, Канда бўйи кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 11 ноябрь куни вафот этган марҳум **ТУРДАЛИЕВ ИБРОХИМ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Миришкор МФЙ, Дорбоз кўчасидаги уйда яшаб, 2023 йил 20 ноябрь куни вафот этган марҳум **ХЎЖАЕВ ХАСАН ҚУРБОНОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобур шоҳкўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 13 март куни вафот этган марҳум **ХУРМАТОВА ДИЛБАРХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод тумани, Эскиқўрғон маҳалласидаги уйда яшаб, 2023 йил 16 май куни вафот этган марҳум **КАБИРОВ ЗОХИДЖОН ТОХИРОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Озод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў.Тўйчибоев нотариал идорасига,

Қўрғонтепа тумани, Наврўз МФЙ, Заробод кўчасидаги уйда яшаб, 2020 йил 26 июль куни вафот этган марҳум **СОЛИЕВ БОТИР**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Қўрғонтепа тумани, Мустақиллик кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.Б.Мамадалиев нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Қуруқсой МФЙда яшаб, 2022 йил 24 январда вафот этган марҳум **YULDASHEV XABIBULO TAJIDINOVICH,**

Шаҳрихон тумани, Мустақиллик МФЙда яшаб, 2024 йил 24 майда вафот этган марҳум **ЗАЙНОБИДИНОВА НАГИМАХОН,**

Шаҳрихон тумани, Туркистон МФЙда яшаб, 2023 йил 19 декабрда вафот этган марҳум **ОРИПОВ ИСМОНАЛИ ЗОКИРОВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Бўстон туманида яшаб, 2019 йил 27 апрелда вафот этган марҳум **АБДУРАХМАНОВ АБДУЛАЗИЗ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, бир ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Бўстон тумани, Тараққиёт кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Мўйдинов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahrirriyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi. «ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 26.09.2025-yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 26.09.2025-yil, soat 14.00. Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma № 11966. 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li